BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SIROJOVA ZARNIGOR NASRIDDINOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XOHISH-ISTAK MA’NOSINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 811.111'37+811.512.133'37

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Sirojova Zarnigor Nasriddinovna
Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak ma’nosini ifodalovchi leksik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari 3

Sirojova Zarnigor Nasriddinovna
National-cultural Characteristics of Lexical Units Expressing the Meaning of Desire in the English and Uzbek Languages.....21

Сирожова Зарнигор Насриддиновна
Национально-культурные особенности лексических единиц, выражающих значение желания в английском и узбекском языках 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....45

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SIROJOVA ZARNIGOR NASRIDDINOVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XOHISH-ISTAK MA’NOSINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil5125 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Umurqulov Bekpo'lat** filologiya fanlari doktori, professor
	Axmedov Oybek Saporbayevich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «19» noyabr soat 900 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0/1101 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «2» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «2» noyabr dagi 40 - raqamli reestr bayonnomasi.)

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kunda globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo muloqot va til o‘rganish jarayonlarining jadallashgani sari, xohish-istak mazmunli leksik birliklarning inson tafakkuri bilan bog‘liqligi, shaxslararo kommunikatsiyada nutq madaniyati masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tilshunoslik manzarasida til so‘z qatlamining muayyan kategoriyasini shakllantirgan xohish-istakni ifodalovchi leksik birliklarning alohida leksik-semantik guruh sifatida o‘rganish, ularning struktur-semantik hamda kommunikativ-pragmatik jihatdan nutqda voqelanishiga xos xususiyatlarini aniqlash, har bir madaniyat va tilga xos xohish-istak ifodalash usullarini tadqiq qilish, ularning lingvistik va ekstralingvistik, madaniy va falsafiy, kognitiv-mental, kontekstual-pragmatik xususiyatlarini baholashga imkon yaratadi.

Dunyo tilshunosligida xohish-istakni ifodalovchi lisoniy birliklarning tilda shakllanish tarixi va nutqda voqelanishiga doir muhim xulosalar chiqarilgan. Xohish-istakni ifodalovchi lisoniy birliklarni semantik-pragmatik jihatdan chog‘ishtirib o‘rganish milliy tilning u aloqador bo‘lgan til sohiblari madaniy hayoti, o‘ziga xos turmush tarzi va e’tiqodiy qarashlari, psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, rivojlanib borganligini anglash, xohish-istak ma’nosini implisit va eksplisit tarzda ifodalovchi vositalarning xususiyatlarini va ularning o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, xohish-istakni konsept sifatida talqin qilinishini o‘rganish, ushbu konseptning qiyoslanayotgan tillar tarkibida milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilish va ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kechayotgan jadal islohotlarning hozirgi bosqichida O‘zbekiston Respublikasini ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[1]ning davlat dasturida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga yuksaltirishdek ustuvor vazifani qo‘ydi. Bu esa o‘zbek tilida xohish-istakni ifodalovchi lisoniy birliklar o‘rni va ahamiyatini aniqlash, ularga xos milliy-madaniy, leksik-semantik, stilistik-funksional, kognitiv-pragmatik xususiyatlarni ochish, badiiy adabiyotlar tarkibida konseptual tipologik talqin etilishini, inglizcha tarjimada qanday berilishini ko‘rsatish zamonaviy tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning ilmiy-amaliy asoslarini yanada mustahkamlash imkonini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи 2017 йил, 8 февраль. № 28 (6722).

iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi,” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz va xorij tilshunosligida xohish kategoriyasi masalasi murakkab va kam o‘rganilgan jabhalardandir.

Jumladan, g‘arb tilshunoslarida A.Berk, X.Fovler, O.Yespersan, G.Vallens, J.Lyons, G.N.Leech, R.Huddleston, G.K.Pullum, J.Coates, J.L.Bybee, R.D.Perkins, V.Pagliuca[2], va boshqa qator lingvistlar xohish-istak kategoriyasining ba’zi aspektlarini o‘rganganlar.

Jahon folklyorshunosligida xohish-istaklar ishtirok etgan olqishlarga bag‘ishlangan ayrim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bunga S.S.Katash, I.K.Nazmutdinova, N.M.Mekeko va M.V.Kutyeva, N.D.Mixaylova, L.V.Zorina, M.K.Xalimbekova, O.S.Shlapakov, L.N.Panchenko, E.D.Kaksina, E.V.Bezborodova, va E.A.Kurchenkova, B.L.Uorf[3] kabi olimlarning tadqiqotlarini misol keltirish mumkin.

---

[2] Berk L.M. English syntax: from word to discourse. – New York: Oxford University Press, 1999; – 456 p.; https://www.livelib.ru/book/1002907874-a-dictionary-of-modern-english-usage-the-classic-first-edition-h-w-fowler; Jespersen, O. Essentials of English Grammar [Text] / Jespersen O. – London: G. Allen & Unwin LTD, 1933.; https://www.researchgate.net/scientific-contributions/Jean-Luc-Vallens-2011332144; Lyons, John. Semantics. Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.; Leech, Geoffrey Neil. Meaning and the English Verb. 3rd ed. – Harlow: Pearson Longman, 2004. – 168 p.; Huddleston, Rodney; Pullum, Geoffrey Keith. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 1842 p.; Quirk, Randolph; Greenbaum, Sidney; Leech, Geoffrey; Svartvik, Jan. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985. – 1779 p.; Coates, Jennifer. The Semantics of the Modal Auxiliaries. – London: Croom Helm, 1983. – 259 p.; Bybee, Joan L.; Perkins, Revere D.; Pagliuca, William. The Evolution of Grammar: Tense, Aspect and Modality in the Languages of the World. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – 398 p.

[3]Каташ С.С. Алкиш Сос (благопожелания) – древний жанр алтайского фольклора. Улагашевские чтения. Вып.I. Горно-Алтайск, 1979. – С.63-77.; Назмутдинова И.К. Удмуртские лексемы приветствия и прощания в пермском крае и удмуртской республике//Ежегодник финно-угорских исследований. – 2009. – №1. – С. 67-70.; Мекеко Н.М., Кутьева М.В. Лингвокультурологическая и прагматическая интерпретация обрядовых пожеланий в фольклоре Великобритании, Испании и России. Cognition, communication, International on-line journal http://sites.google.com/site/cognitiondiscourse. – Kharkov, 2010. – Б.63.; Kutieva M.V. (2016). Practical steps to democratize foreign language education: Foreign experience. Innovation and Multicompetence in Teaching and learning foreign languages. Collection of proceedings. Peoples' Friendship University of Russia; F. Skarina Gomel State University. –Moscow, –P.367-378.; Михайлова Н.Д. Благопожелания: кочевой образ жизни//Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. – 2010. – №4. – С.28-32.; Зорина Л.В. Вологодские диалектные благопожелания в контексте традиционной народной культуры. – Вологда: ВГПУ, 2012. –216 с; Халимбекова М.К. Гендерно-ориентированные благопожелания, обслуживающие речевой этикет (на материале лезгинского и английских языков) // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 9 (часть 11). – С. 2576-2579.; O.S Shlapakov. The development of manner of speaking

Shuningdek, xohish-istaklarning lingvistik, etnografik mohiyati aks etgan tadqiqotlar ham e'tiborni tortadi[4]. Ingliz folklori tarixini o'rganishda alohida hissasi bor tadqiqotchilarga M.Mak, L.Banks, V.S.Blekmen, E.Kantsiani, G.S.Rejinald, E.Klod, F.T.Elvorzi[5] kabi olimlarni kiritish mumkin. Mazkur lingvistlar tadqiqotlarida og'zaki so'z san'ati durdonalari qatoridan joy olgan xohish-istaklarni ifodalovchi birliklarni tadqiq qilishgan[6].

O'zbek tilshunosligida xohish-istaklarni ifodalovchi birliklar maxsus o'rgangan olimlardan N.Qo'chqorov[7], O'zbek xohish-istaklari haqidagi dastlabki olqishlarga bag'ishlangan ilmiy mulohazalarni B.Sarimsoqov ilgari surgan[8]. O'zbek marosim xohish-istaklari, olqishlari va ularning mavzuiy turlari, badiiyati bo'yicha mulohazalar O.Safarov, U. Jumanazarov, D.O'rayeva[9] tadqiqotlarida bayon etilgan.

T.Mirzayev, O.Safarov, D.O'rayevalar tomonidan tuzilgan "O'zbek folklori xrestomatiyasi"da[10] 2008-yilda alohida janr namunasi sifatida kiritilgan bo'lib, mazkur kitobda xohish-istaklarni uchratish mumkin.

---

markers in English and Chinese: Pragmaticalization, grammaticalization and lexicalization. Journal of Pragmatics 107:–P.16-30; Ö.; Panchenko, A.; Biemann, C. Improving Linguistics. – Moscow:, 2015, 41, –P.665-695; Каксина Е.Д. Каксина Е.Д. Кулик в фольклоре казымских хантов // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. 2022. № 03 (83). – 234 с.; Bezborodova S. A. Development of professional foreign language lexical competence of students of mountain specialities based on information and communication technologies: PhD thesis. Ekaterinburg, 2016. –251 p.; E.A Kurchenkova. On the Issue of Polite Appeals and Blessings in Indian English. SHS Web of Conferences 69, 00069 (2019) https://doi.org/10.1051/shsconf/20196900069. https://old.bigenc.ru/linguistics/text/4699956

[4] Арискина Т.П. Выражения речевого этикета в эрзянском и венгерском языках: Дисс. канд. филол. наук. – Саратов, 2007. – 151 с.; Бгажноков Б.Х. Очерки этнографии общения адыгов. – Нальчик: Эльбрус, 1983. – 232 с.; Лапина М.А. Этика и этикет хантов. – Екатеринбург: Баско, 2008. – 120 с.; Молданов Т., Молданова Т. Боги земли казымской. – Томск, 2000. – С. 46; Попова С.А. Мансийские календарные праздники и обряды. – Томск, 2008. – 138 с.; Пятникова Т.Р. Традиционные обряды хантов Усть-Казымского Приобья. – Екатеринбург: Баско, 2008. – 80 с.

[5]Graeme L.A. Banks. "Leslie Esdaile". Book Series in Order. Retrieved April 28, 2023. –P.234.; V.S. Blackman The Magical and. Ceremonial Uses of Fire Winifred S. Blackman. – P.352-377. | Published online: 01 Feb 2012
Cite this article https://doi.org/10.1080/0015587X.1916.9718940; Canziani.E. Representation and Reality. - Cambridge; Massachusetts; –London: The MIT Press, 1989. - 136 p.; https://www.discogs.com/artist/3167004-Reginald-Goss-Custard; Coustillas, Pierre ed. London and the Life of Literature in Late Victorian England: the Diary of George Gissing, Novelist. –Brighton: Harvester Press, 1978. – P.371.;

[6] Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B.45.

[7]Қўчқоров Н. Ўзбек халқ олқишларининг жанр хусусиятлари ва бадийяти: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 1994. –B.73.

[8] Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.; К.Имомов, Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, О.Сафаров. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.109-112; В. Саримсоқов. Олқишлар. // Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.128-143.

[9] Сафаров О. Айтим-олқишлар / Ўзбек болалар оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б 78; Сафаров О., Ўраева Д. Маросим олқишлари ҳақида // Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари" мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – Б.15-18; Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 2010; Жуманазаров У. "Олтин олма, дуо ол!", "Дуо – олтин эмасми?", "Қўшгани билан қўша қарисин" // Тарих ҳақиқати ва халқ ижоди бадийяти. – Тошкент: "Elmus Press Media", 2007. – Б.3-28; Ўраева Д., Розиқова Ф. Маросим олқишлари бадийяти // Адабиёт ва таржима. Тўплам. – Тошкент: "Зарқалам", 2006. – Б.104-106; Ўраева Д. Мотам олқишлари // Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадийяти: Филол. фанлари док-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.42-43.

[10] Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. O'quv qo'llanma. – Тошкент: Aloqachi, 2008. – B.34-38.

Jumladan, “Boychechak”, “Oy oldida bir yulduz” folklor to‘plamlarida, asosan, bolalarga bag‘ishlangan xalq aytim olqishlari, xohish-istaklaridan namunalar keltirilgan[11].

G‘arb va Sharq folklorshunosligi va etnologiyasida xohish-istaklar, olqishlarga aloqador qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek xalq xohish-istaklarini ifodalovchi olqishlarining struktur-semantik, janr hamda gender xususiyatlari, badiiy-estetik vazifalarining chog‘ishtirma tadqiqida amalga oshirilmagan.

Umuman aytganda, xalq ijodi va tilidagi xohish-istaklarini ifodalovchi olqishlari o‘zi mansub xalqning madaniyatidan darak beruvchi estetik hodisa sifatida lingvomadaniy verballashuvi nuqtayi nazaridan maxsus ilmiy o‘rganishni taqozo qiladi. Ularning til va nutqdagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida nazariyasini yaratish lozim. Bu, avvalo, til, madaniyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini antropologik jihatdan o‘rganishda, tilshunoslik fanida tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini anglashda, tarjimashunoslikda esa somatizmlar tarjimasi bilan bog‘liq muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasining “Pragmalingvistika va funksional tarjimashunoslik va til o‘qitish jarayonlari integratsiyasi” mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak ma’nosini ifodalovchi leksik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak ma’nosini ifodalashning turli qatlamlarga oid xususiyatlari, tabiati hamda kollokatsiyalarini o‘rganish orqali bu birliklarning leksik-semantik xususiyatlarining lingvomadaniy konnotatsiyalarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillaridagi korpuslar yordamida xohish-istakni ifodalovchi birliklarning pragmatik va diskursiv xususiyatlarini ochib berish hamda deskriptiv tahlil asosida bu birliklarning madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq xususiyatlarini tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istakni ifodalovchi leksik birliklarning chog‘ishtirilayotgan tillar badiiy asarlari, maqol, matal, olqish va leksik birliklar tarkibida uchraydigan denotativ va konnotativ, milliy-madaniy xususiyatlarining differensial belgilarini ochib berish;

xohish-istakni ifodalovchi birliklarning ingliz va o‘zbek tillari madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishini o‘rganish, his-tuyg‘ularni ifodalashda ushbu birliklarning inson tafakkuridagi rolini aniqlash va ularning milliy-madaniy kontekstdagi o‘rnini tushuntirish;

[11]Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар К.Очилов ва О.Сафаров. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 336 б.; Ой олдида бир юлдуз: Ўзбек халқ маросим қўшиқлари / Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи – филология фанлари доктори М.Жўраев. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б. Nurmonov, Abdulla. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 232 b.; Ne’matov, H. O‘zbek tili funksional sintaksisi masalalari. – Toshkent: Fan, 1984. – 196 b.; Bo‘ronov, J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1973. – 284 b.; Mahmudov, N. Til va nutq. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 224 b.

qiyoslanayotgan tillarda xohish-istakni konsept sifatida talqin qilish va ushbu konseptning qiyoslanayotgan tillar tarkibidagi milliy-madaniy xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xohish-istak ma’nosini ifodalovchi ingliz va o‘zbek leksik birliklari, olqishlar, maqollar, matallar va aforizmlar tanlandi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi xohish-istakni bildiruvchi leksik birliklar, olqishlar maqol va matallar hamda aforizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, komponent, distributiv, struktur-semantik, chog‘ishtirma, qiyosiy-tipologik, tavsifiy-miqdoriy, kontekstual sharhlash tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Ilmiy ishning yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak semantikasini ifodalovchi leksik birliklarning qo‘llanish faolligi hamda o‘zaro birikuvchanlik xususiyatlari chog‘ishtirma tahlil qilinib, ularning leksik-semantik strukturasi va funksional imkoniyatlari aniqlanib, mazkur birliklarning *milliy-madaniy tafakkur*, *qadriyatlar* tizimi va *kommunikativ me’yorlar* bilan bog‘liq lingvomadaniy konnotatsiyalari ochib berilib, ularning ikki til lisoniy manzarasidagi o‘ziga xoslik va umumiy jihatlari tizimlashtirilgan;

ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida xohish-istak ma’nosini ifodalovchi lisoniy birliklarning pragmatik va diskursiv xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etilib, ularning kommunikativ vazifalari, nutqiy voqelanish mexanizmlari hamda diskurs hosil qilishdagi funksional imkoniyatlari aniqlanib, mazkur birliklarning milliy ong, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liq lingvomadaniy hamda sotsiomadaniy omillari ochib berilgan. Ingliz xohish-istak semantikasini ifodalovchi birliklarning *irreal* va *potensial-irreal* ma’no turlari bo‘yicha, o‘zbek xohish-istak birliklari *semantik-pragmatik* hamda *differensial* belgilari, *voqelik* va *ehtimollik* kategoriyalari bilan farqlanishi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak ma’nosini ifodalovchi leksik birliklarning badiiy asarlar, maqol va matallar, olqishlar hamda boshqa paremiologik birliklar, olqishlar va folklor matnlari tarkibidagi denotativ va konnotativ ma’nolari chog‘ishtirma tahlili amalga oshirilib, mazkur birliklarning milliy-madaniy mazmuni, aksiologik va lingvomadaniy konnotatsiyalari ochib berilgan. Xohish-istak konsepti ingliz lisoniy manzarasida *verballashuv* xususiyatiga ko‘ra, o‘zbek xohish-istak birliklari esa, *konseptual* tizimga ega ekanligi tipologik *umumiylik* va *differensial* belgilarga ko‘ra tizimlashtirilishi dalillangan;

ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak semantikasini ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv xususiyatga ega ekanligi chog‘ishtirma aspektda tadqiq etilib, ularning turli madaniy kontekstlarda qabul qilinish interpretatsiyasi va nutqiy voqelanish mexanizmlari aniqlanib, mazkur birliklar fikr va hissiy holatlarni ifodalashi, inson tafakkurida shakllanuvchi konseptual tuzilmalarga ega ekanligi, *milliy-madaniy qadriyatlar* bilan bog‘liq *mental modellar* tizimi sifatida ishlashi *etnospetsifik belgilar* asosida ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo‘yilgan muammo tadqiqiga metodologik aniqlik va manbaviy asoslanganlik mezonlari asosida ilmiy jihatdan xolislik mezoni bilan yondashilganligi, muammo aniq belgilanganligi, talab

darajasida ilmiy asoslanganligi, nazariy ma’lumotlar va faktik materiallar ishonchli ilmiy, badiiy manbalardan olinganligi, Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalarning amaliyotda joriy etilganligi, ular mazmun-mohiyatida keyingi davr tilshunosligida voqelanayotgan zamonaviy ilmiy tafakkurga asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi - xohish-istaklarni ifodalovchi leksik birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari ishonchli manbalar: ingliz va o‘zbek maqol, matal, olqish birliklari kontekstida aniqlangani hamda jahon tarjimashunosligining eng yangi ilmiy konsepsiyalari va nazariy qarashlari asosida qiyosiy o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ingliz va o‘zbek tillaridagi xohish-istak mazmunli leksik birliklar, olqish, maqol, matallarning milliy-madaniy, semantik, pragmatik xususiyatlari hamda ushbu birliklarning leksik birliklar tarkibida lingvopoetik jihatdan qo‘llanishini, asliyatga mos tarjima qilinish prinsiplarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganish va yechimlarini aniqlash orqali olingan xulosalar qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik fanlarini yangi nazariy qarashlar bilan boyitishi va ularning rivoji uchun foydali bo‘lgan o‘ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan;

Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istaklarni ifodalovchi leksik birliklarning ma’noviy, strukturaviy turlari, ularni ifodalash bilan bog‘liq lingvopoetik belgilar o‘rganilishi bu ikki til foydalanuvchilari uchun mo‘ljallangan lug‘atlar tuzishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek maqol, matal, olqish va leksik birliklarining xohish-istakning ifodalanishi bilan bog‘liq semantik-pragmatik xususiyatlarni ochib berish, ularni asliyatdan tarjima qilish muammolarini bartaraf etish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida olingan xulosalarga tayanib:

Xohish-istakni ifodalovchi birliklarning o‘zbek va ingliz tillarida madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishini psixolinguistik xususiyatlarini o‘rganish orqali, fikr va his-tuyg‘ularni ifodalashda ushbu birliklarning inson tafakkuridagi roli aniqlangan va ularning milliy-madaniy kontekstdagi o‘mi tushuntirilganligiga oid lmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-201709134-sonli “Filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ingliz tilini o‘rganishni baholash sifatining shakl va tamoyillari” mavzudagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan. (O‘zMU 2025-yil 30-yanvardagi 04/11-1945-son ma’lumotnomasi).Natijada, til, madaniyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini antropologik jihatdan o‘rganish, tarjimashunoslikda esa somatizmlar tarjimasi bilan bog‘liq muammolarni hal etishga xizmat qilgan;

Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program”

loyihasi doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi xohish-istak ma’nosining til va nutqdagi o’rnini, semantik-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy aniqlash, leksik-semantik mohiyatini, kognitiv-pragmatik, denotativ hamda konnotativ va tarjimada berilish jihatlarini yoritish, lingvistik va kommunikativlik kompetensiyani va tilshunoslik asoslari bilimini oshirish, ta’lim tizimi jarayonini xorijiy tajribalar asosida ta’lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda yangicha yondashuvlar sifatida mazkur tadqiqot ishidagi tahlil natijalaridan, loyihaning nazariy asoslaridan foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 15-yanvardagi 120/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasiga kiruvchi ma’ruzalarning ilmiy jihatdan boyitilishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istakni ifodalovchi leksik birliklar semantikasi, ko‘chma ma’nolari va bu so‘z bilan bog‘liq iboralarni, ularning berilish usullari, ko‘chma ma’noda berilgan so‘z va iboralarni tushuntirish, ingliz va o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodida ifodalanishining o‘zaro o‘xshashligi va farqlari, semantik-pragmatik tahlilda bunday tafovutlarning aniqlanishi, xohish-istak ma’nolarining til va nutqdagi o‘rni, semantik-pragmatik xususiyatlari fikrning qanday maqsadga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq xulosalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” teleko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 21-yanvardagi 01-09-31-son ma’lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishga, o‘zbek va ingliz tillarida maqol-matallarda, xalq aytim-olqishlarida, lug‘at boyligida xohish-istakning milliy madaniy xususiyatlari haqida tasavvur-tushunchalarini boyitishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 4ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 1 ta respublika muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob’yekti, predmeti va usullari ko‘rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan;

tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Tadqiqotning nazariy asoslari" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobning birinchi fasli** *"Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak masalasining o'rganilish tarixi, muammolar va yechimlar"dir*. Mazkur bo'limda istakni tasvirlash ko'plab jahon, ingliz va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilib kelingan va turli tillar tizimida chog'ishtirma aspektda o'rganilgan. Bunday leksik birliklarga nafs va xohishning ko'plab xususiyatlarini mujassamlaydigan wish/*istak*, *the will/iroda*, *ishtiyoq/desire*, *need/ehtiyoj*, *lust/shahvat*, *ego/nafs*, *aspiration/intilish*, *appetite/ishtaha* va *hope/umid* kabi leksik birliklarning semantik sohasi tahlilga tortilgan va ushbu birliklarning semantik maydonlari ko'rsatib berilgan.

Shuningdek ishda, O.Yespersen[12], L.Berk[13], J.Searle[14] kabi olimlar nutq aktlari nazariyasini rivojlantirgan va xohish-istak ifodalarining semantik va pragmatik jihatlarini tahlil qilganligi ta'kidlanib, L.Berkning hozirgi ingliz tilidagi istak maylining uch turini farqlaganligi misollar yordamida ko'rsatilgan: 1. mandatli istak mayli (mandative subjunctive); 2. volisional istak mayli (volitional subjunctive); 3. qotgan istak mayli (formulaic subjunctive).

Birinchi turdagi istak mayli talabni ifoda etsa (*I suggest that he go. I insist that she come)*[15], ikkinchi turdagi istak mayli mavhum, noreal tilakni ifodalaydi (*I wish I were a bird*). So'ngi turdagi istak mayliga L.Berk so'zlovchining istagi, tilagini bildiruvchi, ingliz tili rivojlanishining qadimgi va o'rta bosqichlaridan shaklan o'zgarmay saqlangan, asosan diniy mazmundagi iboralarni kiritadi. Masalan, *God bless you. The Lord make his face shine upon thee* [London J. Smoke bellew, 79].

Ushbu bobning ikkinchi fasli *"Ingliz va o'zbek tillarida xohish-istak muammosini kategoriyalash muammolari" deb* nomlangan bo'lib, mazkur faslda xohish-istak ma'nosining kategoriya va grammatik jihatdan tahlili murakkab va qiziqarli mavzulardan biri hisoblanishi, xohish-istak ma'nosining kategoriya muammolari keyingi o'n yilliklarda tadqiqotlarning eng muhimlaridan biriga aylanib borayotganligi, xohish-istak ma'nosi lingvistik tahlillar doirasida o'ziga xos o'rin tutishi hamda, xohish-istak so'zlari turli tilda va madaniyatlarda turlicha ifodalanishi haqida ilmiy mushohada qilingan. Tuzilishiga ko'ra *xohish-istak* ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar quyidagicha bo'lishi mumkin: sodda, murakkab, qo'shma va murakkab qo'shma so'zlar.

Xohish tipologik kategoriyasini ifodalashning morfologik usullari asosan qadimgi ingliz tilidan saqlangan. Masalan, *God bless You*!/*Olloh madakor bo'lsin!* singari iboralardagi fe'l uchinchi shaxs birlikdagi odatiy -s qo'shimchasini olmasligi misolida ko'rsatib o'tish mumkin. Bu holat istak mayli tarkibini to'ldiruvchi vaziyat bo'lganligi va yuqorida aytilgan ***-s*** qo'shimchasi fe'lga qo'shilganida gap aniq maylga o'tib xohish mazmunini yo'qotishi diqqatga sazovordir. Masalan, *insisted*

[12]https://www.routledge.com/A-Modern-English-Grammar-on-Historical-Principles-Volume-2-Syntax-first-volume/Jespersen/p/book/9780415860239
[13]Берг Л.С. Санкт Петербургский университет. 2000. –№. 17-18 (3540-3541). http://www.spbumag.nw.ru/OLD/Spbum26-96/6.html
[14] Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge University Press. 1969. – 208 p.
[15] http://www.freeclassicebooks.com/

he go out/tashqariga chiqishga turib oldi shaklidagi gaplar ham shu fikrimizni to‘ldiradi. Ushbu sintetik shakldan tashqari ingliz tilidagi xohish-tipologik kategoriyasini ifodalovchi morfologik darajadagi analitik shakllar ham mavjud. Ular *would* va *should* yordamida tuziladigan misollarda namoyon bo‘ladi[16]. Masalan, *I would go far away through the terrible forest, and find some tree for myself in which to roos.*[17]. O‘zbek tili xohishni ifodalashda kognitiv jihatdan zamon va makonga bog‘liq ekanligi tahlil qilindi. Masalan, *Men o‘z baxtimni izlab, uzoq yo‘lga chiqmoqchiman* [A.Qodiriy, O‘tkan kunlar]. Ushbu gapimizda kognitiv xususiyat shundaki, baxtni izlashga intilish bor lekin, uni topa olishga nisbatan umidning kamligini bildiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi xohish-istakni ifodalovchi birliklarning kategorial va mifologik tasnifi ochib berilgan va ikki til asnosida misollar bilan boyitilgan.

Mazkur bobning uchinchi fasli esa *“Ingliz va o‘zbek tillarida semantik maydon tushunchasi”* deya nomlangan. Bu faslda “Maydon” tushunchasi aslida fizika faniga xos ekanligi, ushbu leksemaning uzoq vaqtdan buyon psixologiya, biologiya va sotsiologiya kabi fanlarda ham keng tushuncha ekanligi, muhit xodisalarini ifodalovchi ushbu atamaning turli fanlarda qo‘llanilishi uning fizikadan ko‘r-ko‘rona ko‘chirilganligini anglatmasligini balki, maydon tushunchasining turli fanlarda, shu jumladan, tilshunoslikda ham ishlatilishiga qarshilik qiluvchi fikrlarning ko‘pligiga qaramasdan bu tushunchani qo‘llovchi fanlarning soni ham, ushbu tushunchaning mohiyatini ochib berishga harakat qiluvchi ta’riflar ham tobora ko‘payib borayotganligida ekanligi asoslangan.

A.Bondarkoning[18] fikricha qarama-qarshi bo‘lmagan munosabatlar ham mavjud. Mavjud ta’riflar asosida til maydonlarining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni qabul qilish mumkin: 1. Maydon o‘zaro struktural munosabatlar asosida bog‘langan elementlar jamlanmasini tashkil etadi; 2. Maydonni tashkil etuvchi elementlar semantik umumiylikka ega va tilda yagona funksiyani bajaradi; 3. Maydon bir vaqtning o‘zida ham bir turdagi ham ko‘p turdagi elementlarni jamlashi mumkin; 4. Maydon tuzilishida mikromaydonlar ajratilishi mumkin; 5. Maydon tarkibida yadroviy va periferiyaga xos bo‘lgan tashkil etuvchi elementlar aniqlanadi; yadro-dominant-element atrofida tashkil topadi; periferiya hududiy tuzilishga ega; 6. Yadroviy elementlar maydon funksiyalarini bajarish uchun ko‘proq mo‘ljallangan; 7. Maydon bajaruvchi funksiyalar yadro va periferiyaning o‘rtasida taqsimlanadi; 8. Yadro va periferiya, periferiyaning alohida hududlari o‘rtasidagi chegara aniq belgilanmagan; 9. Maydonni tashkil etuvchi elementlar bir maydonning yadrosiga tegishli bo‘lish bilan bir vaqtda boshqa maydonning periferiyasida uchrashi mumkin; 10. Turli maydonlar bir-biri bilan kesishishi va kesishuv hududlarini vujudga keltirishi mumkin. Ingliz tilidagi xohish kategoriyasini tadqiq etish jarayoniga maydon yondashuvini qo‘llash til materialini o‘rganishni kengaytirish, morfologiya, sintaksis va leksika o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni yechishga yordam beradi.

---

[16]Matyakubov.O.Q Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: Tadqiq va talqin (Fransuz hamda o‘zbek ertak, naqllari misolida). International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2024, vol. 10, No 1 (54), pp. 97-116. https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online). –B.99-100.

[17]London J. Before Adam. www.freeclassicebooks.com –P.21.

[18] Бондарко А.Б. Глагольные категории в системе функциональной грамматики. Издательский Дом ЯСК Языки славянской культуры. – Москва, 2017. –336 с.

1.1: Rasm. Ingliz tilida *“want”* fe’lining semantik maydoni.



1.2: Rasm. O‘zbek tilida tilida “Xohlamoq” fe’lining semantik maydoni



Birinchi bobning to‘rtinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak ma’nosini ifodalovchi leksik birliklarning semantik maydon tarzida ko‘rinishi”* deb nomlangan bo‘lib, periferiyada *“xohish”* ma’nosini ifodalash xususiyatiga nisbatan sustlashgan leksemalar uchrashi *(to hope, to intend, to go* va hokazolar), bu esa leksik-semantik maydon tarkibida quyidagi mikromaydonlar aniqlash imkonini berishi (*istak - wish, umid - hope, chanqoq - thirst, intilish - intention, afzallik - preference, vasiyat - will, xirs - lust, maqsad – ambition)* isbotlangan. Ushbu mikromaydonlarni tashkil etuvchi leksemalar *“xohish”* leksik-semantik maydonining periferiyasini yuzaga keltirdi. Ushbu mikromaydonlarning elementlari periferiya bilan bir qatorda yadroni ham tashkil etgan. Umuman olganda yadro, yaqin periferiya va olis periferiyaning maydondagi ulushi quyidagicha: 24%: 40%: 36%. Buni o‘zek tili bilan taqqoslaganda quyidagicha holda chiqqan: 26%: 48%: 34%. Ko‘rinib turibdiki, tilga nisbatan struktura elementlari o‘rtasidagi munosabatlar va bog‘liqliklar tizimiga ega bo‘lgan tizimli obyekt sifatida yondashuv til birliklarining funksional va semantik xususiyatlarining bir-biriga bog‘liqligini tan olishga asoslanadi va bu miqdor ingliz tilini o‘zbek tiliga taqqoslaganda farq qiladi.

Mazkur dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak ma’nosini bildiruvchi leksik birliklarning struktur-semantik va funktsional tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida istak mayli – xohish istak kategoriyasining asosi sifatida”* deb nomlangan**.** Xohish-istakni ifodalovchi so‘zlarda shakl va mazmunning aynan mana shu kesishishi istak mayliga ta’rif berishda subyektivlikka yo‘l qo‘yilishiga olib kelishi, turli

yondashuvlarga qaramasdan umumiylik shunda namoyon bo‘lishi va aksariyat tilshunoslar istak maylini, asosan ma’no jihatiga bog‘liq ravishda, bir necha kichik turlarga ajratganliklari tushuntirilgan. Bir qator yondashuvlarga ergashilgan va A.I.Smirniskiy[19], I.B.Xlebnikova[20], B.A.Ilish[21], L.M.Berk[22] va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ishlardan iqtibosliklar keltirilgan. A.I.Smirnitskiy[23] istak maylining quyidagi turlarini farqlaydi:

a) real borliqqa zid bo‘lmagan mazmunni o‘z ichiga qamrab oluvchi istak mayli: *If I were, I suggest not to go on that island again*. [London J. Jerry of the islands, 45]; b) istak mayli II, aksincha borliqqa zid ma’noni ifodalaydi: *If he were; if he had known*; v) har qanday ega bilan keluvchi infinitiv bilan birgalikdagi *should* iborasi vositasida yasaluvchi tahminiy istak mayli (*should you meet him*); g) shart istak mayli – should va would bilan keluvchi analitik shakllar: *Just as we nearly reached him he would let go.* [London J. Before Asams. 32]

I.B.Xlebnikova istak maylining ichida quyidagilarni farqlaydi: *shart mayli* (Conditional - *should go, would go*); sub’yunktiv (o‘z ichiga *be*, *were if I knew* kabi sintetik shakllarni qamrab oladi) va tizim shakliga kirmagan istak mayli variantlari: *However it might be, for fear it should start trouble* [Adams J. Nice party. 45]. Ushbu tasnif asosida yotgan nazariya quyidagi fikrni ilgari suradi: Ingliz tilida *Conditional* shakllari semantik jihatdan yagona turni tashkil etadi, shakl jihatidan o‘zbek tiliga mos keluvchi boshqa hollar esa yagona tizimga tusha olmaydi. L.Berk[24] istak maylini hozirgi ingliz tilida faolligi sustlashgan fe’l shakli sifatida ta’riflab uni quyidagicha tasniflaydi: *mandative subjunctive* buyruq berishning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib doimo bir xil shaklga ega bo‘ladi (*suggest, we asked, I insist*), *volitional subjunctive* (*wish I were, Joseph wishes he were*), *formulaic subjunctive* - til rivojlanishining qadimgi bosqichlaridan saqlanib qolgan iboralar: *God bless you! The Lord make his face shine upon thee*...[London J. Martin Eden. 87].

L.S.Barxudarov[25] va D.A.Shteling[26] istak mayli II shakli quyidagi hollarda ishlatiladi deb hisoblagan: *1) mavjud bo‘lmagan* narsaga nisbatan afsusni ifodalash uchun *to wish* fe’lidan so‘ng: Masalan, *Ah, I wish I were fifteen again; 2) it’s (high) time iborasidan so‘ng*, ya’ni ayni vaqtda mavjud bo‘lmagan holatni amalga oshirish mavludi keldi: *I shall never forget the first time I saw blueberries served on the table* [London J. Before Adams, 5]; 3*) undov gaplarda orzu, kuchli istak, xohishni* ifodalash uchun if only bog‘lovchisidan so‘ng): *If only his father were alive! If she had only known!* [London J. Before Adams, 67].

Tadqiqotning ikkinchi bobining ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak kategoriyasini ifoda etishning leksik usullari”* deb nomlangan**.** Ma’no kategoriyalarining tilda ifoda etilishini tahlil qilish jarayonida tilshunoslarning e’tiborini o‘ziga tortadigan til qatlamlaridan biri leksik qatlamdir. Har qanday tilning lug‘at tuzilishi ma’lum leksik kategoriyalarning iyerarxiyasini tashkil etadi.


---

[19] Smirnitskiy I.A Essentials of Russian Grammar Hardcover – January 1, 1970. – 378 c.
[20] И.Б. Хлебникова. Морфология английского языка Учеб. Пособие. Москва: Высш. шк. 2004. – 131 с.
[21]Ilish B.A. History of English. 5th edition, rev. and add. Moscow: Higher School, 1968. – P.420.
[22]L.M.Berk. Typology of syntactic realization forms of propositional argument (on the example of Russian emotional verbs). Przegląd wschodnioeuropejski X/1 2019: –P.419–443.
[23]Смирницкий А.И. Лексическое и грамматическое в слове. – Москва., 1955. – С.11–53.
[24] https://pubs.aip.org/physicstoday/online/5724/Herbert-L-Berk
[25]Бархударов Л.С Грамматика английского языка. https://vk.com› wall 94378522_5. –М:, 1960. – 421 с.
[26]Штелинг Д.А. Грамматическая семантика английского языка. Фактор человека в языке. Изд. 2, 2024.

Tahlil etilayotgan ma’no kategoriyasini ifoda etuvchi fe’llarning 6% ingliz tilidagi yasama so‘zlardan iborat ekanligi, o‘zbek tilida esa bu ko‘rsatkich 11% ni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi. Bu so‘z turkumiga oid leksika ham yasama otlar singari suffiksatsiya asosida yasaladi. Tadqiqot natijasida quyidagi fe’l yasovchi suffikslar xohish semali leksik-semantik guruhni to‘ldirishda ishtirok etishi aniqlandi: - *en (hasten), -er (pander), -tion (requisition), -ate (replicate, desiderate).* Buni o‘zbek tiliga taqqoslanganda affeksatsiya asosiy o‘rin tutmasligi aniq bo‘lgan. Ingliz tilidagi xohish-istak kategoriyasini ifoda etuvchi qo‘shma otlar ushbu kategoriya tarkibiga kiruvchi otlarning umumiy sonining 2% qismini qo‘shma otlar tashkil etdi. Buni o‘zbek tiliga taqqoslaganda kattaroq raqamlarga duch keldik. Bu 5% ni tashkil etgan.

Mazkur bobning uchinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak kategoriyasini ifodalashning sintaktik usullari”* deb nomlangan bo‘lib**,** xohish-istak kategoriyasi tilning sintaktik qatlamida so‘z birikmalari bilan bir qatorda frazeologik birliklar vositasida ham keng ifodalanishi aytilgan. Tadqiq etish uchun xohish semantikasini ifodalovchi frazeologik birliklarni tanlab olishda manba sifatida “Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar” dan foydalanilgan. Frazeologik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini belgilashda A.V.Kunin tomonidan ishlab chiqilgan tasnif asos sifatida olingan.

2.3.1: Rasm: Kunin tomonidan taklif qilingan structural semantik guruhlar.



Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak kategoriyasini ifodalashning sintaktik usullari tilshunoslikda shu bugunga qadar ko‘plab tadqiq qilinganligiga qaramasdan, bugungi kunda tadqiq qilinishi lozim bo‘gan masalalardan biridir. Chunki, bu kategoriyalar, insonning xohishlari, istaklari va maqsadlarini ifodalashda turli sintaktik strukturalar orqali amalga oshiriladi. Quyida ushbu strukturalar yuzasidan nazariy ma’lumotlar keltiramiz va amaliy qarashlarimiz bilan bog‘laymiz.

Modal fe’llar*:* Ingliz tilida xohish-istakni ifodalashda modal fe’llar keng qo‘llaniladi. Masalan, *would like, want, wish* kabi fe’llar yordamida xohishlar ifodalanadi. Masalan, *It would be better, I dare say, for you to make your approach, as I made mine, through my childhood* [London J. Before Adam.12].

Infinitive struktura: Xohish-istakni ifodalashda infinitiv (to + fe’l) tuzilmalari ko‘p ishlatiladi. Maslan, *But what I want to know is if other American women are as successful in business ventures?* [London J. Adventure. 125].

Majhul nisbat: Ba’zi hollarda, xohish-istakni ifodalashda subjunctive mood (shart mayli) ishlatiladi, bu esa xohish va umidlarni ifodalashga yordam beradi. Masalan, *And the irritation was still on him as he got up and went inside to stare at the hook on the wall and to wish that her Stetson hat and revolver- belt were hanging from it* [London J. Adventure. 122].

Otli frazalar: Xohish-istakni ifodalashda ot guruhlari ham ishlatiladi, masalan, "*the desire to travel*". Misol uchun, *Your desire for a chaper one as much as implies that I am that sort of creature* [London J. Adventure. 89].

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli*, "Ingliz va o‘zbek tillarida xohish-istak maylida modallik ketegoriyasi va uning leksik-semantik guruhlari"* deb nomlangan. Modallik kategoriyasining ifodalanishida leksik-grammatik usul ham mavjud ekanligi aytilgan. Ular quyidagicha guruhlangan:

Leksik – grammatik usul modal fe'llarning barcha turlarini fe'lning infinitiv

